
DAVRA SUHBATI: KORRUPTSIYAGA QARSHI BIRGA KURASHAMIZ!



Jinoyat ishlari bo'yicha Qo'shtepa tuman sudining raisi A.Ergashev tomonidan Langar, Qumtepa va boshqa mahalla fuqarolar yig'inlarida "Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2021-2022 yillarga mo'ljallangan davlat dasturi ijrosi" hamda "Chaqaloq savdosiga qarshi kurashish" faoliyatini yanada jonlantirish mavzularida shuningdek, Prezidentimizning 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli farmoni ijrosiga bag'ishlangan davra suhbati o'tkazildi.



Davra suhbati davomida JIB Qo'shtepa tuman sudining raisi A.Ergashev tadbir ishtirokchilariga korruptsiya jinoyatini, odam savdosi jinoyatining bir ko'rinishi bo'lgan, biroq undanda xavfli va achinarli jinoyat chaqaloq savdosi ekanligini, jinoyat qonunchiligida bunday jinoyat uchun ham qat'iy jazo choralarini belgilanganligini va bunday jinoyatlarga qarshi kurashish lozimligini aytib o'tdi.

Bundan tashqari, yig'ilganlarga respublikamizda yangi qabul qilingan farmon va qonunlarning mazmun-mohiyati tushuntirildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2022-09-30 19:18:44